



"Shurtan gaz xizmati majmuasi" MCHJ  
MTRB xizmati  
RO'YXATGA OLINDI  
0741 031 - 3979  
2024 yil 05'ni 02

Reg: \_\_\_\_\_

«TASDIQLAYMAN»  
SX,SS,M va AMMB boshlig'i  
Bosh mutaxassis  
U.Xaydarov  
«02 » 02. 2024 yil

### XIZMAT KO'RSATISHGA TEXNIK TOPShIRIQ

ShGKM ish faoliyati davomida hosil bo'ladigan lyumiessent lampalar va tarkibida simob tutgan ishlatalishga yaroqsiz termometrlarni (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 21 sentyabrdagi №266-sonli qaroriga asosan) ekologik xavfsiz (demerkurizatsiyalash) zararsizlantirish.

## 1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

### 1.1. Nomi

ShGKM ish faoliyati davomida hosil bo'ladigan lyumiessent lampalar va tarkibida simob tutgan ishatishga yaroqsiz termometrlarni ekologik xavfsiz (demerkurizatsiyalash) zararsizlantirish.

### 1.2. Xizmat olishga asos va maqsad

**'Asos:** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 21 sentyabrdagi №266-sonli Qarori va AMMXning 2024 yilda bajarilishi rejalashtirilgan ish va xizmatlar uchun yillik buyurtmasi.

**Maqsad:** Majmua ish faoliyatida ishlatishga yaroqsiz lyumiessent lampalar va tarkibida simob tutgan ishatishga yaroqsiz termometrlarni ekologik xavfsiz to'plash va ularni utilizatsiya qilishni tashkil etish, atrof muhitni simob bilan ifloslanishdan muhofaza qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishlari vazirligi ruxsatnomasiga hamda ekologik va sanitariya-gigiena ekspertizasidan o'tgan zarur texnologik asbob-uskunalarga ega bo'lgan tashkilotlarga topshirish.

## 2 XIZMAT KO'RSATISH JOYI.

O'zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo viloyati, "Shurtan gaz-kimyo majmuasi" MChJ, 180300

## 3.XIZMAT KO'RSATISH MUDDATI.

Maxsus ruxsatnomaga ega bo'lgan tashkilotlar bilan shartnoma tuzish va tuzilgan shartnoma kunidan boshlab, 2024 yil 31 dekabr kuniga qadar shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi chiqindilarini ikki tomonlama kelishuvga asosan belgilangan muddatlarda topshirish.

## 4.XIZMAT KO'RSATISHGA UMUMIY TALABLAR.

Utilizatsiya (demerkurizatsiya) qilish faoliyatini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishlari vazirligi ruxsatnomasiga hamda ekologik va sanitariya-gigiena ekspertizasidan o'tgan zarur texnologik asbob-uskunalarga ega bo'lishi, simobli chiqindilarni zararsizlantirishni (utilizatsiya qilishni) amalga oshiruvchi yuridik shaxs bo'lishi kerak.

Tuzilgan shartnomaga asosan "Ish bajaruvchi" "Buyurtmachi" tomonidan sanoq asosida topshiradigan ishlatishga yaroqsiz lyumiessent lampalar va tarkibida simob tutgan termometrlarni maxsus jihozlangan avtotransportda tashib olib ketish harajatlarini o'z zimmasiga oladi.

Shartnoma umumiy summasining 15% miqdoridagi to'lov "Xizmat ko'rsatuvchi"ning maxsus hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan oldindan amalga oshiriladi. Qolgan 85% to'lov amalda topshirilgan chiqindilarning miqdori va ularni utilizatsiya qilish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarning qiymati (Bajarilgan ishlar haqidagi dalolatnoma, hisob varaqalari) bilan amalga oshiriladi.

## 5. XIZMAT KO'RSATISH NATIJALARINI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH.

Tuzilgan shartnomaga asosan ishlatishga yaroqsiz lyumiessent lampalar va tarkibida simob tutgan ishlatishga yaroqsiz termometrlar "Buyurtmachi" tomonidan to'liq sanoqdan o'tkazilib "Ish bajaruvchiga" topshiradi. Shu asosda "Ish bajaruvchi" qabul qilingan chiqindilarni sanoqdan o'tkazib, chiqindilar turi va miqdori bo'yicha "Buyurtmachi" bilan kelishgan holda dalolatnoma tuziladi.

## 6. IJROCHI MALAKASIGA TALABLAR.

Ish bajaruvchi ishlatishga yaroqsiz lyumiessent lampalar va tarkibida simob tutgan ishlatishga yaroqsiz termometrlarni utilizatsiya qilishda zarur texnologik asbob-uskunalarga hamda malakali kadrlarga ega bo'lishi kerak.



## 7. IJROChI TOMONIDAN TAQDIM QILINADIGAN XUJJATLAR RO'YXATI.

- Ish bajaruvchi yuridik shaxs sifatida Davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnomasi nusxasini hamda O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishlari vazirligining maxsus ruxsatnomasi nusxasini taqdim etadi.
- Ish bajaruvchi tomonidan ishlatishga yaroqsiz lyumiessent lampalar va tarkibida simob tutgan ishlatishga yaroqsiz termometrlarni utilizatsiya qilish bo'yicha tijorat taklifi (narxlар kalkulyatsiyasi)ni har bir utilizatsiya qiladigan lampa yoki termometrlarning turi bo'yicha alohida ko'rsatilgan holda majmuaga taqdim etishi kerak.

## 8.IJROChI KORXONAGA TALABLAR

Shartnoma asosida qabul qilingan lyumiessent lampalar va tarkibida simob tutgan ishlatishga yaroqsiz termometrlarni O'zbekiston Respublikasining "Chiqindilar to'g'risidagi" Qonuni va boshqa me'riy xujjatlar talablari asosida ekologik xavfsiz (demerkurizatsiyalash) zararsizlantirish talabini belgilaydi.

## 9.XIZMATLAR UCHUN BELGILANGAN BOSHLANG'ICH NARX

Ishlatishga yaroqsiz jami **1000(bir ming)** donadan **2000 (ikki ming)** donagacha lyumiessent lampalar va boshqa tarkibida simob tutgan ishlab chiqarish chiqindilarini utilizatsiya qilish.

Nº	Bajariladigan ishlар nomi	O'lchov birligi	Umumiy soni	Chiqindi turlari
1	Lyuminessent lampalar va tarkibida simob tutgan ishlatishga yaroqsiz termometrlarni zararsizlantirish	dona	1000-2000gacha	Energiya tejamkor lampalar DPЛ 125(6) DPЛ125 DPЛ-125 ЛРД-125 TL-D 18W TL-D 36W Lampa spiral 9-25W Lampa spiral 65-85W Lampa DRL-250 Lampa 30-60 W Lampa 9-25 W Boshqa turdagи simob tutgan chiqindilar

## 10. TO'LOV SHARTLARI

15% oldindan to'lov, qolgan qismi amalda topshirilgan chiqindilarning miqdori ko'rsatilgan dalolatnama rasmiylashtirilgandan so'ng amalga oshiriladi.

### Ishlab chiquvchilar:

SS va MM xizmati boshlig'i:

AMMX boshlig'i:

ET sexi boshlig'i:

MTRB guruhi muhandisi:

AMMX muhandis-ekologi:

Z. Rashidov

Sh.Urishov

M. Bekmurodov

B. Boybachchayev

Sh. Islomov

